

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLLIGI



ORIENTAL
UNIVERSITETI

**PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
YO'NALISHLARDA
YOSH TADQIQOTCHILARNING O'RNI**

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

(2026-yil 10-fevral)



Toshkent – 2026

YOSH AVLODNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHDA “QOBUSNOMA” ASARINING AHAMIYATI

Egamova Shoxida Djalilovna

Oriental universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

e-mail: egamovashohida2@gmail.com

Karimova Lola Maxamadzokirovna

Oriental universiteti Pedagogika va psixologiya
(sirtqi) ta’lim yo‘nalishi 114-guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yosh avlod tarbiyasi haqida so‘z borar ekan, unda milliy qadriyatlar, adabiy merosimizning ma’naviy ahamiyati, xususan, Kaykovusning “Qobusnoma” asari va unda ilgari surilgan ta’lim, tarbiya, aql, sharqona odob, axloq, ilm, hunar, sabr, qanoat, rostgo‘ylik, yaxshilik, yomonlik, mehnatsevarlik, saxiylik kabi insoniy fazilatlar xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: milliy qadriyat, milliy tarbiya, Kaykovus, “Qobusnoma”, ta’lim, tarbiya, aql, sharqona odob, axloq, ilm, hunar, sabr, qanoat, rostgo‘ylik, yaxshilik, yomonlik, mehnatsevarlik, saxiylik.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается воспитание молодого поколения, обсуждаются национальные ценности, духовное значение нашего литературного наследия, в частности, “Кобуснома” Кайковуса и пропагандируемые в ней человеческие качества, такие как образование, воспитание, интеллект, восточный этикет, нравственность, наука, ремесло, терпение, удовлетворенность, честность, доброта, зло, трудолюбие и щедрость.

Ключевые слова: национальная ценность, национальное образование, Кайковус, “Кобуснома”, образование, воспитание, интеллект, восточный этикет, мораль, наука, ремесло, терпение, удовлетворенность, честность, доброта, зло, трудолюбие, щедрость.

ANNOTATION

This article discusses the upbringing of the younger generation, discussing national values, the spiritual significance of our literary heritage, in particular, Kaykovus's “Qobusnoma” and the human qualities promoted in it, such as education, upbringing, intelligence, oriental etiquette, morality, science, craft, patience, contentment, honesty, goodness, evil, hard work, and generosity.

Keywords: national value, national upbringing, Kaykovus, “Qobusnoma”, education, upbringing, intelligence, oriental manners, morality, science, craft, patience, contentment, honesty, goodness, evil, diligence, generosity.

“Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da‘vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”, deya ta‘kidlaydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev[2].

Hammamizga ayonki, bugungi murakkab globallashuv davrida jamiyatimizda milliy g‘oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, yoshlarimizni turli zararli g‘oya va tahdidlardan asrash, ularni o‘z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Darhaqiqat, millat tarbiyasi hamma zamonlarda ham eng dolzarb masala bo‘lib kelgan. Jumladan, Sharq mutafakkirlari farzand tarbiyasiga alohida e‘tibor berib kelganlar. “Kalila va Dimna” nomi bilan mashhur bo‘lgan hindlarning “Panchatantra” (“Besh hikmat”), “To‘tinoma” nomi bilan shuhrat qozongan “Shukasaptati” (“To‘tining yetmish hikoyasi”), “Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (“Baxt-saodatga yo‘llovchi bilim”), Muslihiddin Sa‘diyning “Guliston” va “Bo‘ston”, Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy”, Alisher Navoiyning “Mahbubul qulub” (“Ko‘ngullarning sevgani”), “Hayrat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”), Gulxaniyning “Zarbulmasal” kabi o‘nlab durdona asarlar asrlar mobaynida farzandlar tarbiyasida dasturulamal vazifasini o‘tab kelmoqda. Bu asarlar necha-necha avlodga poklik, rostgo‘ylik, juvonmardlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik fazilatlarini singdirib kelayotgani sir emas. Unsurulmaoliy Kaykovus qalamiga mansub “Qobusnoma” asari Sharq xalqlari orasida ma‘lum va mashhurdir [5].

Hikmatli rivoyatlar, ixcham latifalar, kichik-kichik hikoyatlar asarning yanada jozibasini va mazmundorligini oshirgan.

Kaykovus o‘z asarida tarbiyaga alohida e‘tiborni qaratar ekan, tarbiyani inson aqlini va shaxsiy hayotni shakllantiruvchi omillardan deb biladi. Bunda inson ruhiyatini yuksaklarga ko‘tarishni ilgari suradi, salbiy illatlarning sabablarini izlaydi. Xususan, insonni tarbiyalashda hayotda tarbiyaning ta‘sir o‘rni yuqori ekanligini e‘tirof etishni burch deb biladi. Uning fikricha, yoshlarga tarbiya berishdan maqsad ularni nafaqat bugun, balki kelajak uchun ham yaroqli shaxslar qilib yetishtirishdir. Shuning uchun

muallif asarda yoshlarning xulq-atvoriga, fe‘liga alohida e‘tibor beradi. Shuningdek do‘stu dushmanga ham qanday munosabatda bo‘lish kabi masalalarni ham yoritgan. Bola boshidan deyilganidek, farzandni tug‘ilgandan tarbiyalash, odob-axloq me‘yorlarini o‘rgatish, ilmu hunarli qilish, bolaning mehnatga bo‘lgan ko‘nikmasini hosil qilish zarurligini, aks holda “kechikkan” tarbiyaning hech bir ta‘siri bo‘lmay, zarur samarani bermasligini aytib o‘tgan. “Qobusnoma”da yoshlikda bor kuch-quvvatni bilim olish, kasb-hunar o‘rganishga sarflash ayni muddao ekanligi ta’kidlangan [4].

“Qobusnoma” asarining o‘ziga xos jihatlaridan biri unda ham jismoniy, ham aqliy tarbiyaning hamma qirralari o‘ziga xos betakror zukkolik bilan tahlil qilinadi. Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan deyarli hamma asarlarini o‘qir ekanmiz, ularda har bir ta’limiy-tarbiyaviy qarash bilan bog‘liq ravishda keltirilgan hikoyatlarga ko‘zimiz tushadi. “Qobusnoma”da ham o‘nlab hikoyatlar asarning ham g‘oyaviyligini, ham badiiyligini ta‘minlagan.

Kaykovus “Qobusnoma” asarida do‘st tanlash, do‘stlikning poydevori bo‘lmish “do‘stga sadoqat” tuyg‘usi, insonlarning bir-birlariga bo‘lgan do‘stona munosabat haqida to‘xtalar ekan, hayotda do‘stsiz bo‘lgandan ko‘ra, birodarsiz bo‘lishni afzal ko‘radi: *“Ey farzand bilg‘ilki, to kishi tirikdur, do‘stsiz bo‘lmag‘usidur. Kishining do‘stsiz bo‘lg‘onidin birodarsiz bo‘lg‘oni yaxshidur”. Bir hakimdan so‘rdilar: “Do‘st yaxshiroqdurmu yo birodar”. Hakim aytdi: “Do‘st bo‘lsa yaxshidur”* [5].

“Qobusnoma”da keltirilishicha, insonlar hayotda bir-birlariga nisbatan samimiy munosabatni saqlash kerakligini, og‘ir damlarda bir-birlarini qo‘llab-qo‘ltiqlash zarur ekanligini uqtirib o‘tadi: *”Do‘stning ishi haqida o‘ylag‘il, ularga hadyalar bermoq, muruvvatlar qilmoq bila do‘stlik qoidasin mahkam qilg‘il. Nedinkim har kishi do‘stlarni yod qilmasa, do‘stlar ham yod qilmag‘usidur va ul kishi hamisha do‘stsiz qolg‘usidur. Hamma vaqt do‘st tutmoqni odat qilg‘il, zero ki, har kishining do‘sti ko‘p bo‘lsa, ayblari shuncha sir tutilur va fazilati ko‘payur”*[5].

Do‘stga nisbatan ta‘magirlik qilmaslikni, do‘stning do‘stiga ham do‘st tutinish insoniy fazilatlardan biri ekanligini aytib o‘tadi: *“Yana bi‘g‘ilki, do‘stlarning do‘stlari ham do‘stlaringdur. Ehtimolki, uning o‘sha odamg‘a do‘stlig‘i sening do‘stlig‘ingdin ko‘proqdur. Har do‘stkim, sendin hech sababsiz ginali bo‘lsa, uning do‘stlig‘idin tama‘ qilmag‘il va jahonda undin aybliroq va undin yomonroq bo‘lmag‘ay”* [5].

Kaykovus o‘zining hayotiy tajribasidan kelib chiqqan holda, insonlarni salohiyatli, muruvvatli bo‘lishga chorlaydi: *“Bilg‘ilki, jahonda aybsiz odam bo‘lmas, ammo sen salohiyatlig‘, muruvvatlig‘ bo‘l, nedinkim, bundaylarning aybi kam bo‘lur. Muruvvatsiz, fazilatsiz kishini do‘st tutmag‘ilki, bunday kishining xosiyati bo‘lmas va*

ularni non do‘stlari zumrasidin tutg‘il, nedinkim, ular non do‘stidurlar, or va nomus do‘sti emasdurlar” [5].

Asarda yaxshilik va yomonlik haqida so‘z borar ekan, insonlarni imkon qadar yaxshilik qilishga undaydi. Bunda aql bilan ish ko‘rish kerakligini, yaxshiga yondashib, yomondan qochish zarurligini uqtirib o‘tadi: *“Yaxshi, yomon odamni bilg‘il va ikkoviga ham do‘stlik qilg‘il. Yaxshilarga ko‘ngul bila va yomonlarga til bila do‘stlik qilg‘il, toki ikki toifaning ham do‘stlig‘i senga nisbatan hosil bo‘lsun, nedinkim, kishining hojati tanho do‘stiga tushmag‘usidur” [5].*

Asar mazmunida yana muruvvatli, vafoli, ilmi insonlar bilan do‘st tutinishning afzalliklari haqida alohida to‘xtalib o‘tadi: *“Aqlsiz odamlar bila hargiz do‘st bo‘lmag‘il. Aqlsiz do‘st aqlli dushmandin yomonroqdur, chunki aqlsiz do‘st shundoq ish qilurki, aqlli dushman uni qila olmas. Muruvvatlig‘, ilmlig‘ va vafolig‘ kishilarni do‘st tutg‘ilki, to sen ham ul fazilatlar bila yanada mashhur bo‘lg‘aysan. Bemuruvvat, mehr-shafqsiz, hunarsiz (ilmsiz) kishilar bila o‘lturmag‘il. Behunar bila o‘lturg‘ondin tanholig‘ yaxshiroqdur” [5].*

Sharq allomasi Kaykovusning fikricha, insonlarning bir-birlariga samimiy munosabatlari, do‘stlarning bir-biriga xiyonat qilmasliklari, og‘ir damlarda bir-birlariga hamdardligi, tamadan uzoq bo‘lish kamolot belgisidir. Muallif “Qobusnoma”da kishilar orasidagi gina-kudurat, adovatni qattiq qoralaydi: *“Agar do‘stingning ko‘ngli hech gunohsiz sendin qolsa, uni qaytib kelurg‘a mashg‘ul bo‘lmag‘il, nedinkim, tama‘gir, kekchi do‘stdin uzoq bo‘lg‘il, uning do‘stlig‘I haqiqiy ermasdur, balki tama‘ uchundur. Hasadlig‘ kishilarga hargiz do‘st bo‘lmag‘il, chunki hasadlig‘ kishi do‘stliqqa loyiq ermasdur” [5].*

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, asarning buyuk ahamiyati shundaki, unda asosan sharqona odob, axloq, madaniyat, urf-odatqa yo‘g‘rilgan insoniy fazilatlar tarannum etiladi. Kaykovus yirik davlat arbobi sifatida o‘g‘li Gilonshohga nafaqat podshohlik, vazirlik kabi ulug‘ martabadan tortib, yaxshilikka undaydigan jamiki umuminsoniy masalalar haqida ta‘lim beradi. Asarning badiiy qimmatini shundaki, hamma zamonlarda, hamma ijtimoiy-siyosiy tuzumda ham yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda o‘zining qiymatini yo‘qotmaydi.

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek: *“Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir. Chindan ham, bugun biz ulug‘ niyatlar bilan poydevor qo‘yayotgan yangi Uyg‘onish davri mamlakatimizda mana shunday ulkan boylik yaratishga, xalqimizning hayotini farovon qilishga va kelgusi avlodlarga o‘zimizdan munosib meros qoldirishga xizmat qiladi” [1].*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.
<https://president.uz/oz/lists/view/3864>.
2. Mirziyoyev Sh.M.yoshlar tarbiyasi – eng muhim masalalardan.
<https://hozir.org/1-jamiyat-taraqqiyotida-talim-tarbiyaning-tutgan-orni-nimada-j.html?>
3. Berdiyeva L. Kaykovusning pedagogik merosida so‘z san‘atini yoritilishi.
<http://library.ziyonet.uz/uz/book/download/31795>
4. Badalbayeva M. <https://uzhurriyat.uz/2017/09/07/qobusnoma-asarida-yoshlar-tarbiyasi/>
5. Inamov Q. Qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.
<https://cyberleninka.ru/article/n/qadriyatlar-va-yoshlar-tarbiyasi/viewer>
6. Kaykovus. Qobusnoma. –T.: “O‘qituvchi”, 2006.
7. <https://azkurs.org/unsurul-maoliy-kaykovus-qobusnoma.html>
8. <http://tarbiyaviy.uz/asos/marifiy/alloma/kaykovus.html>
9. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/qobusnoma-da-nutq-odobi-masalalari>

MUNDARIJA:

I SHO‘BA. PSIXOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY ASOSLAR, AMALIY YONDASHUVLARI HAMDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.

1.	Karshiyeva Dilafruz Suyunovna, Maxamatova Munisa Mamirzo qizi	Ota obrazining psixologik talqini.....	3
2.	Komiljon Murotmusaev, Mubina Abduqahhorova	Developing emotional intelligence and public speaking competencies among students in the educational process.....	6
3.	Komiljon Murotmusaev, Muyassar Zokirova	Ayollar liderligini shakllantirishda oila va ta‘lim muhitining roli.....	9
4.	Norqo‘ziyev Doniyorbek Baxtiyorovich, Ziyavuddinova Dilafruz Ma‘rufjon qizi	Oilaviy munosabatlarda psixologik zo‘ravonlikning oldini olish mexanizmlari va psixoprofilaktika yo‘nalishlari.....	13
5.	Norqo‘ziyev Doniyorbek Baxtiyorovich, Baxrombekova Iroda Zabihillo qizi	Zamonaviy yoshlar ongida gender stereotiplarning shakllanishiga ommaviy axborot vositalarining psixologik ta‘siri..	17
6.	Norqo‘ziyev Doniyorbek Baxtiyorovich, G‘ulomova Adiba Nozimjon qizi	Yoshlarning ijtimoiy faolligini pasaytiruvchi psixologik omillar va ularni bartaraf etish mexanizmlari.....	21
7.	D.N.Taylakova, U.B.Yusupova	Shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar orqali emotsional rag‘batlantirishning o‘quv jarayoniga ijobiy ta‘sirini aniqlash yo‘llari.....	25
8.	Ungalov Akmal Navruzovich, Elamasova Gulchehra Shuhrat qizi, Asqatbekova Gulnozaxon Dilshodbek qizi	Psychological features of the formation of professional interests in students.....	31
9.	Mamanazarov Uchqun Burxon o‘g‘li	O‘smirlarda axloqiy o‘zini anglashda atrof-muhitning o‘rni.....	35

43.	Jumaniyazova Go‘zal Baxorovna	Ta’limda ijtimoiy-emotsional (sel) kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik asoslari va uning ta’lim samaradorligiga ta’siri.....	193
44.	Nargiza Ergasheva, Muxamedova Aziza	Bolalarning aqliy tarbiyasini shakllantirishda Ibn Sinoning qarashlari (Alisher Navoiy ilmiy-adabiy merosi asosida).....	198
45.	Nargiza Ergasheva, Sobitova Zebo Xasan qizi	Oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchi faoliyatida soft skills (ijtimoiy qobiliyatlar)ning ahamiyati.....	201
46.	Yakubov Zafarbek	Xorazm xalq dostonlari vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ma’naviyatini rivojlantirish texnologiyalari.....	204
47.	Solijonova Madinabonu Baxromjon qizi, Yo‘lchiyeva Shaxloxon Obidjon qizi	Raqamli ta’lim platformalari asosida talabalarning psixologik kompetentligini rivojlantirishning nazariy va amaliy mexanizmlari.....	209
48.	Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna, Mahmudova Zilola	O‘quvchilarda ma’naviy xulq-atvorni shakllantirishning nazariy jihatlari.....	214
49.	Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna, Movlonova Munira Baxtiyor qizi	O‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishda sharq mutafakkirlari manbalaridan foydalanish.....	217
50.	Mamatalieva Khulkaroy Murodjonovna	The collaborative approach in modern language education.....	221
51.	Mamatalieva Khulkaroy Murodjonovna	Collaborative learning as a pedagogical framework for simultaneous skill development in software engineering education.....	226
52.	Yakubova Gulnoza Madrimboyevna	Fasilitatsion ta’lim muhiti asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda fonematik eshituvni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....	232
53.	Yakubova Gulnoza Madrimboyevna	Maktabgacha ta’limda fasilitatsion yondashuv orqali bolalarning ijodiy nutqini rivojlantirish metodikasi.....	238

54.	Ikramova Dono Ulug‘bek qizi	Pedagog shaxsida altruistik kompetensiyalarning o‘rni va ahamiyati.....	242
55.	Ikramova Dono Ulug‘bek qizi	Altruistik kompetensiya tushunchasi va tarkibi.....	245
56.	Dildora Isayeva Sodikovna	Sanogen refleksiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish texnologiyalarni o‘rganish.....	248
57.	Abdusattarova Sarvinoz Norqo‘zi qizi	Oliy ta‘limda “4K” modeli asosida pedagogika fanlarni o‘qitish metodikasini rivojlantirish.....	253
58.	Allaberganova Nargiza Polvannazirovna	O‘qituvchilar uchun polifunksional yondashuvni tatbiq etish bo‘yicha metodik tavsiyalar.....	257
59.	Allaberganova Nargiza Polvannazirovna	Polifunksional yondashuv orqali ta‘lim jarayonida samaradorlikni oshirish.....	261
60.	Rahmatullaeva Lobarxon	Sun‘iy intellekt asosidagi kiber xavfsizlik tizimlarining boshqaruv samaradorligiga ta‘siri.....	266
61.	Raximova Feruzaxon Raximjonovna	Maktabgacha yoshdagi bolalarning sensomotorik indikatorlarini shakllantirish.....	271
62.	Raximova Feruzaxon Raximjonovna	Sensorik o‘yinlar orqali bolalarning psixomotor rivojini rag‘batlantirish.....	274
63.	Niyazmetova Zuxra	Multidisciplinar yondashuv asosida talabalarda kreativ kompetentlik va metakognitsiyani rivojlantirish.....	278

III SHO‘BA. OILA, MAKTAB VA TA‘LIM MUASSASALARI O‘RTASIDAGI HAMKORLIK SHAROITIDA MAKTABGACHA HAMDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR.

64.	Quchqorova Nargiza Mamajonovna, Saidaxmedova Dono Ulug‘bek qizi	4K modeli asosida o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda soft skills rivojlanishining psixologik asoslari.....	281
65.	Quchqorova Nargiza Mamajonovna, Mamatkarimova Sayyoraxon Ilxomjon qizi	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini pedagogik mahorat fani orqali kasbiy kompetentligini shakllantirish.....	285
66.	Isaqulov To‘lqin Mahmud o‘g‘li,	Ta‘lim muassasalarida sun‘iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari....	289

	Sharipova Zarnigor		
67.	Toshov Muxiddin, Abdurashidov Doniyor	Hamkorlik madaniyati – boshlang‘ich sinflarda talim-tarbiya sifatini rivojlantirish omili sifatida.....	293
68.	Toshov Muxiddin, Jabborova Kamola	Boshlang‘ich sinflarda hamkorlik madaniyati va muhitini yaratish.....	305
69.	Karimova Shahloxon, G‘aniyevna, Faxritdinova Shoiraxon	Boshlang‘ich ta‘limda matn bilan ishlash jarayonida multimedia vositalaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi.....	312
70.	Shahlo Karimova, Obloberdiyeva Mexrubon Faxritdinovna	“Yoriltosh” ertagining bolalar adabiyotida tutgan o‘rni.....	316
71.	Shahlo Karimova, Umarova Zubayda Lutfulloevna	Dilshod Rajabning bolalar uchun yozgan she‘rlarida ma‘rifiy g‘oyalar.....	320
72.	Shahlo Karimova, Ro‘zmatova Gulasal Baxtiyorjon qizi	Anvar Obidjonning bolalar uchun yozgan she‘rlarida ma‘rifiy g‘oyalar.....	323
73.	Shahlo Karimova, Isomiddinova Charosxon Abdulla qizi	To‘xtaboyevning she‘rlari – bolalik va hayot falsafasi.....	329
74.	Shahlo Karimova, Qalandarova Gulhayo Aslon qizi	Chet el va o‘zbek ertak janrlaridagi qahramonlar obrazlari.....	332
75.	Shahlo Karimova, Xolova Gulira‘no	Xudoyberdi To‘xtaboyevning "sehrli qalpoqcha" asari badiiy tahlili.....	337
76.	Egamova Shoxida Djalilovna, Karimova Lola Maxamadzokirovna	Yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda “qobusnoma” asarining ahamiyati.....	342
77.	Mamadiyurov Jamol Baxodirovich, KUCHIMOVA RASHIDA ERMAMA QIZI	Ta‘lim jarayonida interfaol uslublar va texnologiyalardan foydalanish.....	347
78.	Mamadiyurov Jamol Baxodirovich, Toxirova Saida Muzaffar qizi	Interfaol ta‘lim texnologiyalarini tashkil etish shakllari va metodlari hamda ularning ta‘lim samaradorligiga ta‘siri.....	350